



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Specific Features of State Regulation of Small Business in Uzbekistan

Madraimova Marxamat Raximberganovna

Trainee Lecturer, Department of Business and Management,
Faculty of Socio-Economic Sciences, Urgench State
University named after Abu Rayhan Beruni
marhamatmadraimova@mail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada 2010–2024-yillar davomida O‘zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish siyosatining evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Ilmiy tadqiqotchilar va iqtisodchilar uchun mo‘ljallangan mazkur tahliliy maqolada mavzunungi nazariy asoslari, davlat siyosati yo‘nalishlari va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda soha rivojining asosiy ko‘rsatkichlari statistik ma‘lumotlar orqali yoritib beriladi. Shuningdek, hududlar kesimida kichik biznes rivoji darajasidagi tafovutlar o‘rganilib, xulosa qismida olingan natijalar asosida ilmiy takliflar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik, Kichik Biznes, Raqobat, Kichik Biznesni Tartibga Solish, Davlat Tomonidan Qo‘llab-Quvvatlash, Moratoriy, Innovatsiya

Kirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda har qanday milliy iqtisodiyotning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Xususan, kichik biznes innovatsiyalarni joriy etish, sog‘lom raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, monopoliyalashuvga qarshi kurashish va iste‘mol talabini rag‘batlantirish kabi iqtisodiyotning asosiy vazifalarini bajaradi [1, 2]. Kichik korxonalar tomonidan yaratilgan qo‘shimcha ish o‘rinlari ishsizlik darajasini kamaytirishga xizmat qilib, aholi farovonligini oshirishga hissa qo‘shadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”. Darhaqiqat, kichik biznesning jadal taraqqiyoti nafaqat yalpi ichki mahsulot o‘shishiga, balki aholi bandligiga va turmush darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi [3, 4].

Mamlakatimizda “kichik biznes” atamasi ilk bor xorijiy adabiyotlardan olingan bo‘lib, u o‘z ichiga kichik va o‘rta korxonalarni qamrab oladi. Ilmiy adabiyotlarda “biznes” tushunchasi “predprinimatelstvo” (tadbirkorlik)ga nisbatan kengroq ma‘noni anglatishi ta‘kidlanadi - biznes foyda olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat bo‘lsa, tadbirkorlik shu faoliyatni innovatsion g‘oyalar

asosida tashabbus va tavakkalchilik bilan amalga oshirishdir [5]. Mixaylova O.A. (2009) o'z tadqiqotida kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslarini bayon etib, "kichik biznes" va "kichik tadbirkorlik" tushunchalarining o'zaro nisbati yuzasidan turli nazariy yondashuvlarni ko'rsatadi. Unga ko'ra, ayrim iqtisodchilar bu tushunchalarni sinonim sifatida qo'llasalar, boshqalar biznes tushunchasini tadbirkorlikka nisbatan kengroq doirada ko'radilar, yana bir guruh olimlar esa tadbirkorlikni biznesning alohida, xavf va innovatsiyaga moyil turi sifatida tavsiflaydilar [6, 7]. Shu tariqa, kichik biznes faoliyatini tartibga solish nafaqat uning rivoji uchun shart-sharoit yaratish, balki xususiy tashabbus va innovatsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi [8, 9].

Iqtisodiyotning mustaqil tarkibiy qismi sifatida kichik biznes faoliyati samarali bo'lishi uchun davlat tomonidan muayyan tartibga soluvchi mexanizmlar joriy etiladi. Kichik biznes iqtisodiyotda kichik va o'rta korxonalar faoliyatini o'z ichiga olgan holda xususiy sektorning muhim bo'g'inidir. Davlatning kichik biznesga ta'sir etuvchi asosiy vositalari qonunchilik bazasini yaratish, soliq va moliyaviy imtiyozlar berish, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash va institutsional sharoitlarni takomillashtirishdan iborat. Nazariy jihatdan, davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va bozor muvozanatini saqlashdan iborat [10]. Kichik biznesning ijtimoiy ahamiyati yuqori ekani, uni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash va turmush sifati oshirish mumkinligi ilmiy adabiyotlarda alohida ta'kidlangan. Shu bois, davlat kichik tadbirkorlik sub'ektlariga qulay biznes muhiti yaratish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash kabi vositalar orqali soha taraqqiyotini ta'minlaydi.

Kichik biznesni tartibga solishda davlatning vazifalarini quyidagicha tavsiflash mumkin (1-rasm):

birinchidan, huquqiy bazani shakllantirish va xususiy mulkning ustuvorligini ta'minlash;

ikkinchidan, soliq va qarz siyosatini yengillashtirish orqali kichik korxonalarga moliyaviy yordam ko'rsatish;

uchinchidan, bozor infratuzilmasini rivojlantirib, kichik biznes uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

to'rtinchidan, tadbirkorlarning bilim va malakasini oshirishga ko'maklashuvchi institutlarni (masalan, biznes-inkubatorlar, maslahat markazlari) qo'llab-quvvatlash [11].

Ilmiy nuqtai nazardan, kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish bozor mexanizmlarini to'ldiruvchi va maqbullashtiruvchi vazifani bajaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning bevosita aralashuvi minimal bo'lishi talab etilsa-da, kichik biznes sektorida muayyan chegaralangan va maqsadli tartibga solish orqali samaradorlikka erishish mumkinligi ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan asoslab berilgan.

2010-yillarga kelib O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. 2011 yil mamlakatda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinib, shu munosabat bilan davlat dasturi tasdiqlandi. Mazkur dastur doirasida kichik biznes uchun eng qulay sharoitlarni yaratish, xususiy mulk huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, tadbirkorlikka erkinlik berish, ortiqcha davlat tartib-taomillari va byurokratik to'siqlarni tugatish belgilangan edi [12]. Jumladan, 2011 yilda mikro va kichik korxonalar uchun bir necha soliq turini birlashtiruvchi yagona soliq to'lovining yagona stavkasini joriy etish, korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirish, kichik biznes sub'ektlariga davlat buyurtmalaridan ulush olish imkoniyatini yaratish choralari ko'rildi. Shu yilning o'zida tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish muddati va tartibi yengillatildi, shuningdek kichik korxonalarga davlat xaridlarida ishtirok etish uchun teng imkoniyatlar berildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, shu yilning o'zida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54% gacha o'sdi. Solishtirish uchun, 2005 yilda ushbu ko'rsatkich atigi 38% ni tashkil etgan edi [13].

Shu bilan birga, 2011 yilda joriy etilgan yagona soliq to'lovining qat'iy stavkali tartibi amaliyotda

ba'zi muammolarni ham keltirib chiqardi. Xususan, mazkur yagona soliq to'lovi eng avvalo aylanmasi nisbatan katta bo'lgan sub'ektlarga mos tushib, kichikroq (oilaviy) biznes yurituvchilar uchun soliq yukining oshishiga olib keldi. Bir oyda 400 AQSh dollari daromad qiluvchi kichik korxonaga taxminan 160 dollar (ya'ni daromadning 40%) miqdorida soliq to'lashga to'g'ri kelayotgani haqida ma'lumotlar e'lon qilindi [14]. Natijada ba'zi mayda tadbirkorlik sub'ektlari uchun bu yangilik moliyaviy jihatdan samarasiz bo'lib, o'z faoliyatlarini to'xtatish holatlari kuzatildi. Shu yillarda qabul qilingan boshqa qaror va chora-tadbirlarda ham kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda ayrim ziddiyatli holatlar yuzaga kelgan. Masalan, mahalliy mahsulot ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida 2011 yil aprelda kiritilgan yangi aksiz solig'i import tovarlar narxi sezilarli oshib ketishiga sabab bo'ldi (importga soliq stavkalari 50–200% gacha belgilangan). Bunday choralar ichki bozorni himoya qilishga xizmat qilgan bo'lsa-da, kichik savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlar uchun qo'shimcha yuk yaratgan.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari natijasida O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlari soni va ularning iqtisodiyotdagi ulushi yillar davomida sezilarli ravishda o'zgardi. Bu o'zgarishlarni aniqroq tasavvur qilish uchun ayrim asosiy ko'rsatkichlarni dinamikada ko'rib chiqamiz. Jumladan, kichik biznesning yalpi ichki mahsulot (YaIM) shakllanishidagi ulushi vaqt davomida ortgani, keyingi yillarda esa ma'lum darajada pasaygani kuzatiladi.

Ma'lumotlariga ko'ra, 2000 yilda kichik biznes YaIMning bor-yo'g'i 31 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib mazkur ko'rsatkich 52,5% darajaga yetdi. 2011 yilda kichik biznes ulushini 54% ga yetkazish rejalashtirilib, bu ko'rsatkich amalga oshirildi. Keyingi yillarda ham o'sish sur'ati davom etib, 2016 yilda 56–57% atrofida bo'ldi. 2020 yilga kelib esa rasmiy statistikaga ko'ra kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi eng yuqori nuqta – 57,5% ga yetgani qayd etilgan. Biroq keyingi yillarda bu ulush nisbatan pasayib, 2022 yilda 54,6%, 2023 yilda 54,3% va 2024 yil yakunlari bo'yicha taxminan 54,3% va 2025 yilda 52,2 % ni tashkil etdi (1-rasm.) [15].

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda o'tgan davr mobaynida kichik biznes faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish borasida jiddiy siljishlarga erishildi. Davlat siyosatining dastlabki bosqichlarida asosiy e'tibor qonunchilik bazasini shakllantirish va kichik biznes ulushini tez oshirishga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik islohotlar tadbirkorlik muhitini tubdan yaxshilash, mavjud to'siqlarni bartaraf etish va hududiy hamda tarmoqlararo muvozanatni ta'minlashga yo'naltirildi. Kichik biznesning YaIMdagi ulushi mustaqillik yillarida bir necha baravarga oshdi, xususiyl sektorida bandlik sezilarli darajada kengaydi, kichik korxonalar sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish kabi tarmoqlarda hal qiluvchi o'rin egalladi. Bu esa qabul qilingan davlat dasturlari va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining muayyan samarasini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning so'nggi yillarda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishga qaratgan sa'y-harakatlari o'zining muayyan ijobiy natijalarini berdi. Kichik biznes mamlakat yalpi ichki mahsuloti yarmidan ko'pini ta'minlaydigan, aholining katta qismini band qiladigan va eksport salohiyatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Davlat siyosatining izchilligi va islohotlarning davomiyligi ta'minlangan holda, kelgusida ham kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yana keng imkoniyatlar ochiladi. Zero, mazkur sohadagi taraqqiyot nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiradi, balki jamiyatda o'rta kichik mulkdorlar sinfini shakllantirib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kafolatiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] N. E. Tuganbekova, "Prioritetnye napravleniya razvitiya malogo biznesa i predprinimatel'stva v respublike Uzbekistan," Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, Feb. 2024, pp. 618–624. [Online]. Available: www.e-itt.uz
- [2] O. A. Mikhaylova, Regulyrovaniye predprinimatel'skoy deyatel'nosti v sfere malogo biznesa regiona, Extended abstract of Cand. Sci. (Econ.) dissertation, Cheboksary,

2009.

- [3] Muallif ishlanmasi.
- [4] H. de Soto, *The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else*. New York, NY, USA: Basic Books, 2000.
- [5] D. C. North, “Institutions,” *Journal of Economic Perspectives*, vol. 5, no. 1, pp. 97–112, 1991.
- [6] J. E. Stiglitz, “The Role of the State in Financial Markets,” *World Bank Policy Research Working Paper*, 1993.
- [7] D. Rodrik, “Industrial Policy for the Twenty-First Century,” *Working paper*, 2004.
- [8] World Bank, *Doing Business 2020*. Washington, DC, USA: World Bank, 2019.
- [9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili davlat dasturi to‘g‘risida,” PQ-1474-son Qaror, Feb. 7, 2011. [Online]. Available: <https://lex.uz/docs/1745084>
- [10] “Uzbekistan: Vvedennaya Tashkentom fiksirovannaya stavka naloga dushit malyt biznes.” [Online]. Available: <https://russian.eurasianet.org/node/58780>
- [11] O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari. [Online]. Available: https://stat.uz/img/news/kb_uz_p60509.pdf
- [12] “Dolya malogo biznesa v VVP Uzbekistana dostignet 54% v 2011 godu.” [Online]. Available: <https://uzbekistan.org.ua/ru/uzbekistan/publikatsii/148-dolya-malogo-biznesa-v-vvp-uzbekistana-dostignet-54-v-2011-godu.html>
- [13] R. S. Madatovich, “The role of preschool education and family education in the raising of a healthy balanced generation,” *For Teachers*, vol. 57, no. 4, pp. 520–523, 2024.
- [14] S. M. Ruzimurodov, “Ethnomadaniyan and ethnoesthetic aspects of the formation of a healthy lifestyle in society,” *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, vol. 3, no. 5, pp. 188–194, 2021.
- [15] A. A. Azizkulov and S. M. Ruzimurodov, “Gazali on the significance of intellect in human activity,” *Paradigmata Poznani*, no. 2, pp. 43–46, 2014.